

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

IZATILLAYEV MUZAFFARXON MUSSOXON O'G'LI

**TO'QIMACHILIK MATOLARI JILODORLIGINI OSHIRISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH**

**05.06.02- To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Izatillayev Muzaffarxon Mussoxon o‘g‘li

To‘qimachilik matolari jilodorligini oshirishda innovatsion
texnologiyalarni tadbiq etish..... 3

Изатиллаев Музаффархон Муссохон угли

Применение инновационных технологий для повышения
оттеночного блеска текстильных тканей..... 23

Izatillaev Muzaffarkhon

The use of innovative technologies to improve the tint shine of textile
fabrics..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 48

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

IZATILLAYEV MUZAFFARXON MUSSOXON O'G'LI

**TO'QIMACHILIK MATOLARI JILODORLIGINI OSHIRISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH**

**05.06.02- To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/T1979 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (namdtu_info@edu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkinov Zokirjon Erkinboy o'g'li
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Valiyev Gulam Nabidjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Muxtorov Jo'rabek Rayimberganovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "2" may soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-19-96. e-mail: namdtu_info@edu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 12-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№159-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: namdtu_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil 13-yanvardagi № 88-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda global to'qimachilik bozorining hajmini kengaytirish, ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish hamda matolarning funksional va estetik samaradorligini aniqlash asosida to'qimachilik mahsulotlarini tejamkor ishlab chiqarish va undan oqilona foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda jahon to'qimachilik bozori 2025-yil yakunida 1.16 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2033-yilga kelib 1.61 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, yillik o'sish sur'ati taxminan 4.2% atrofida bo'lishi, bunda urbanizatsiya, texnik to'qimalarga bo'lgan talab va raqamli bosma texnologiyalar asosiy omillar sifatida qayd etilmoqda¹. Shu bilan birga, dunyo bo'yicha to'qimachilik sohasida 7 milliondan ortiq ishchi faoliyat yuritmoqda, bu esa uni eng yirik ish beruvchi tarmoqlardan biriga aylantirmoqda². Bu borada, jumladan texnik va funksional tekstillar bozorining 2030-yilga kelib 52 milliard dollardan ortiq hajmga yetishi, sog'liqni saqlash, sport, harbiy va sanoat sohalarida matolarga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatishi hamda ushbu yo'nalishda innovatsion, tejamkor va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda to'qimachilik ta'minotining sifatini sezilarli yaxshilash, xususan matolarning estetik ko'rinishi, funksional xususiyatlari va ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, mato yuzasidagi jilodorlik (jozibadorlik)ni oshirishning innovatsion va tejamkor usullarini ishlab chiqish, mato yuzasidagi nurlanish va yorug'lik bilan o'zaro ta'sir jarayonlarini modellashtirish hamda asosiy parametrlarni optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy usullarda ko'p bosqichli ishlov berish va kimyoviy moddalar orqali mato jilodorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan ekologik muammolarni bartaraf etish, ishlab chiqarish harajatlarning ortishini kamaytirish hamda texnologik murakkabliklarni yengillashtirish, mato yuzasida jilodorlikni ekologik xavfsiz va innovatsion yondashuvlar bilan ta'minlash usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik sanoatini zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hisobiga modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish, ekologik toza innovatsion gazlamalar ishlab chiqarishni va tayyor mahsulot eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida, jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish, bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu

¹ Textile Market Size, Share & Growth Analysis Report, 2030 <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

² Global Textile Industry Statistics | ZipDo Education Reports 2025 <https://zipdo.co/global-textile-industry-statistics/>

vazifalarni amalga oshirishda, xususan, mato sirtining jilodorligini oshirish, ekologik xavfsiz bo'yoqlash usullarini ishlab chiqish va funksional xossalarni yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentabrdagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 556-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda bo'yalgan mato hamda aralash va bo'yalgan gazlama ishlab chiqarish loyihalari doirasida xarid qilingan uskunalar qiymatining bir qismini subsidiyalash tartibi to'g'risida" gi nizom. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PQ-290-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnika-texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II «Energetika, energiyava resurs tejankorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. To'qima tuzulishiga ta'sir etuvchi omillarning mato sirt ko'rinishiga ta'siri, turli xil tolali iplardan oddiy o'rilishdagi to'qimani ishlab chiqarish texnologiyasi, To'qimachilik matolari sirtiga strukturaviy rang berish orqali gazlamalar ishlab chiqarish kabi jihatlarni chuqur o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlar bilan bir qator taniqli xorijiy olimlar hissa qo'shganlar. Jumladan, N.G.Novikov, D.J.Morfi, Bonn, E.Ermetj, T.Yu.Yeroxin, K.A.Kurochkin, A.M. Kuznesov, E.A.Onikov, Ibrahim, N. A., Gao, Y., Cranston, R., Kanade, P., Patel, B., Zhou, Q., Lv, J., Ren, Y., Chen, J., Gao, D., Zhu, K.; Fang, C.; Pu, M.; Song, J.; Wang, D.; Zhou, X. Zhang Ao, Yuan Wei, Zhou Ning, va boshqalar.

To'qimalar ishlab chiqarish va to'qimani rang bardoshlilik va yorqinlik hamda havo o'tkazuvchanlik xossalari parametrlarini optimallashtirish bo'yicha O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: I.A.Nabiyeva, T.B.Tashkenbayeva, S.Sh.A'zamjonova, M.Irmatova, K.M.Rasulova, M.U.Ulug'bekovalar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida matolarning funksional va estetik xususiyatlarini takomillashtirish, ekologik xavfsiz va innovatsion ishlov berish usullarini joriy etish hamda To'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, paxta tolali va poliestar iplaridan oddiy o'rilishda to'qilgan to'qimalarning jilodorligini oshirishda Cu₂O nanozarrachalari asosida mikro-nano struktura hosil qilish, ularning mato sirtidagi tartibli joylashuvi va optik effektlarini

nazorat qilishga qaratilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar jarayonida yuzaga keladigan muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlarining rejasidagi **AL-21122144** "Mis tarkibga asoslangan nanozarrachalarning o'lchamlari va uni antibakterial o'z-o'zidan xromogen paxta tolali materiallarda qo'llash" O'zbekiston-Xitoy xalqaro (2023-2024) loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Yangi innovatsion texnologiyani qo'llab jilodorligi va strukturaviy rang effekti oshirilgan to'qima olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to'qima tuzilishiga ta'sir etuvchi omillarning mato sirt ko'rinishiga ta'siri, turli xil tola tarkibli iplardan to'qima ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiqi bo'yicha izlanishlarni tahlil qilish;

to'qimachilik matolarini pardoqlash hamda kimyoviy tarkib ta'sirida ularning xususiyatlarini yaxshilash va rang hosil qilishning innovatsion usullarini tadqiqi bo'yicha izlanishlarni tahlil qilish;

tolali mahsulotlarda rang hosil qilishning innovatsion usuli - fotonik kristallardan foydalanishni tadqiq etish;

mis oksidli mikrosferalarini to'qimachilik matolarida qo'llash va mis oksidi hajmi hamda o'lchamlar taqsimoti bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

tolali materiallar yuzasida mikro-nano tuzilma hosil qilish va uni tartibga solish texnologiyasini ishlab chiqish;

mis oksidi asosida bo'yaladigan matolarning texnik hisobini amalga oshirish hamda matoda rang yorqinligi, jilodorligi va estetik ko'rinishini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida turli tolaviy tarkibli iplardan oddiy o'rilishli mato, mis oksid nanozarrachalar yordamida hosil qilinadigan mikro-nano tuzilmali mato, va ularning fizik-kimyoviy xossalari olingan.

Tadqiqotning predmetini oddiy o'rilishli to'qimachilik matolarining sirt jilodorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar, xususan, mis oksid asosida strukturaviy rang hosil qilish usullari, mato tuzilmasi, ip parametrlarining ta'siri va bo'yash jarayonining fizik-optik xususiyatlarga ta'siri tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida to'qimachilik materiallarini sinash, nazariy mexanikaning to'qima matosiga ta'sir etuvchi kuchlarni tahlil qilish, tolali materiallarga nanozarrachalarni purkash, mikroskopik kuzatuvlar (SEM, FESEM) orqali tuzilmani tahlil qilish, tajriba natijalarini qayta ishlash, FTIR (infraqizil spektroskopiya) - kimyoviy bog'larni aniqlash, XRD (rentgen difraksiyasi) - kristallik darajasini o'lchash, UV-Vis spektroskopiya - optik xossalarni baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik matolari yuzasini mis oksidi nanozarrachalari yordamida mikro-nano tuzilma hosil qilish orqali strukturaviy jilodorlikni oshirishning takomillashgan texnologiyasi ishlab chiqilgan;

to'qimachilik matolari jilodorligini oshirish uchun takomillashgan texnologik yondashuvi asosida mis oksidli nanozarrachalarini konsentratsiyasini maqbul qiymatlari regression matematik model orqali aniqlangan;

to'qimachilik matolari yuzasiga mis oksidi (Cu_2O) nano zarrachalarini PDMS bog'lovchi vositasi bilan purkash orqali tushayotgan nurdan rang aks etishi usuli ishlab chiqilgan;

to'qimachilik matolari jilodorligini oshirish uchun yopishtiruvchi modda miqdori ba mikrosfera massa ulushining maqbul qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mis oksidi konsentratsiyasi, poliestер ulushi va mato yuza zichligi o'rtasidagi bog'liqlik asosida to'qima yorqinligini oshirishga xizmat qiluvchi optimal parametrlar ishlab chiqilgan;

matlab dasturiy muhitida tuzilgan modellar yordamida izochiziqlar grafigi chizilib, mato yuzasida hosil bo'lgan strukturalarning jilodorlikka ta'siri vizual tarzda tahlil qilingan;

tajriba natijalariga asoslanib, yorqinlik darajasi 86.55% gacha, havo o'tkazuvchanlik esa $251 \text{ m}^3/\text{m}^2/\text{s}$ ga erishildi, bu esa amaliy jihatdan yuqori ko'rsatkich hisoblangan;

olingan natijalar asosida to'qimachilik korxonalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida natijalarning ishonchliligi tadqiq qilingan muammo ushbu sohadagi ma'lum eksperimental tadqiqotlarning natijalariga mosligi, izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda asosli tanlanganligi, o'tkazilgan aprobatsiyalar va ishlab chiqarishga joriy etilgan natijalarning ijobiyliigi, ularning o'rganilgan fan sohasidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilish **bilan izohlanadi.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mato olish uchun yakka yigirilgan paxta va poliestер iplaridan oddiy o'rilish usulida to'qima olish tavsiya etilganligi, olingan matoni fizik-mexanik ko'rsatkichlari aniqlanganligi, aralash tolali iplardan olingan to'qimaga zamonaviy texnologiya usulida bo'yoq sepilgan va To'qimachilik materiallari zamonaviy texnologiya asosida ishlov berilgan To'qimachilik matosi olishga erishilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalar asosida ekologik xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali va sanoat miqyosida qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologik jarayon taklif etilishi, bu jarayon To'qimachilik mahsulotlarining estetik ko'rinishini yaxshilash bilan birga ularning funksional xossalarini ham oshirishi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: paxta tolali ip va poliestер iplarida to'qilgan zamonaviy texnologiya usulida ishlov berilgan to'qimachilik materiallarini tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

to'qimachilik matolari yuzasini mis oksidi nanozarrachalari yordamida mikro-nano tuzilma hosil qilish orqali strukturaviy jilodorligini oshirilgan to'qimachilik materiallari Namangan shahridagi «Art Soft tex» MCHJ hamda «Fabrictex» MCHJ (O'zbekiston Respublikasi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 2026 yil 22

yanvardagi 02/06–105-son ma'lumotnomasi) korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan. Natijada mikrosferaning massa ulushi 3.0 % va PDMS bog'lovchi modda ulushi 5–10 % ligi aniqlangan, hamda yorqinlik va havo o'tkazuvchanlik uchun optimal parametrlar sifatida $x_1=3\%$, $x_2=50\%$, $x_3=100 \text{ g/m}^2$ qabul qilingan, yillik ishlab chiqarish hajmi $87\,360 \text{ m}^2$ bo'yicha umumiy tejamkorlik 332 409 600 so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xorijiy va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ilmiy tadqiqot ishining analitik tahlili va tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida asosan To'qimachilik texnologiyasiga oid jurnallar, maqolalar, ilmiy to'plamlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy va o'quv adabiyotlaridagi dissertatsiya mavzusiga aloqador ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etildi. Shuningdek, sohaga oid internet ma'lumotlari hamda manbalari o'rganildi. To'qimachilik matolarining sirt ko'rinishini belgilovchi asosiy omillari ip tuzilmasi, o'rilish turi, yorug'likning yutilishi va aks ettirilishi bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlil qilindi. Yaponiya, Xitoy va Yevropa davlatlarida strukturaviy rang berish texnologiyaning rivojlanish tendensiyalari, ularning to'qimachilik sanoatiga tatbiq etilishi va O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi.


Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari mis oksidli mikrosferalarini to'qimachilik matolarida qo'llash va mis oksidi hajmi hamda o'lchamlar hisobiga strukturaviy rang hosil qilish va uni ilmiy asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifasi etib belgilangan.

Dissertatsiyaning **“To'qimachilik matolarida jilodorlikni oshirish uchun innovasion usulga asoslangan nanozarrachalar qo'llashning tadqiqi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, mis oksid mikrosferasining $210 \pm 10 \text{ nm}$ o'lchamdagisini ikki bosqichli suyuq-fazali (reduksiya) qaytarish texnologiya yordamida sintez qilindi.

Birinchi bosqich. Misli prekursor eritmasini tayyorlash uchun dastlab, 3 gr polivinilpirrolidon ($M_m = 55,0$), 0.98 gr natriy sitrat digidrat ($\text{C}_6\text{H}_5\text{Na}_3\text{O}_7 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) va


0.6640 gr mis asetat monogidrat ($C_4H_6CuO_4 \cdot H_2O$) 500 mL li kolbaga solinadi. Mis asetat ionlari manba sifatida ishlatilindi. So'ngra etilen glikoldan 60,0 mL, deionlashtirilgan suvdan 200,0 mL kolbaga quyildi. Kolbadagi aralashmani magnitli aralashtirgich orqali 3 soat davomida aralashtirildi. So'ngra ultratovushli tebranish berildi. Jarayon yakunida qattiq moddalar butunlay eriydi va ochiq moviy rangli shaffof eritma hosil bo'ldi.

Ikkinchi bosqichda bizga kerak bo'ladigan Cu_2O mikrosferalarini sintezlash jarayoni amalga oshirildi. Bu tajriba natriy gidroksid (NaOH) ishqoriy sharoitda amalga oshirilishi kerak. Birinchi navbatda, misli eritmaga asta-sekinlik bilan 20,0 mL 0.40 mol. natriy gidroksid qo'shildi, natijada suyuqlik to'q ko'kka rangi aylandi. Yuqori darajadagi aralashtirgich bilan 10 daqiqa aralashtirilgandan keyin, askorbin kislota 15,0 mL 0.2 mol. qaytaruvchi sifatida ikki marta qo'shildi va 1 soat davomida aralashtirildi. Shundan so'ng Cu_2O (mis oksid) emulsiyasi olinadi. Reaksiyada mahsulotlarini ajratib olish uchun sentrifuga orqali 8000 ayl^{-1} tezlikda 10 daqiqa aylantirildi. Mahsulotni avval iflosliklardan tozalash uchun 1:1 nisbatda suvsiz etanol va deionlashtirilgan suv aralashmasi bilan yuvib, keyin quritildi, natijada Cu_2O mikrosferalari olinadi (1-rasmga qarang). Sitrat (Cit^{3-}) va mis ionlari (Cu^{2+}) larining molyar massa nisbatini (0.9, 1.0, 1.1 va 1.2) o'zgartirib, turli xil 190 nm dan 275 nm gacha kattalikdagi zarrachali Cu_2O mikrosferalarini tayyorlash mumkinligi aniqlandi.




1-rasm. Cu_2O zarrachalari bilan qoplama tayyorlash: a) Cu_2O mikrosferalarini tayyorlash
b) strukturaviy rangli matolarni tayyorlash.

Cu_2O sepilganidan keyin to'qimani tashkil etgan iplar tolalarining yuzasini skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida tahlil qilindi (2-rasmga qarang). 2a,c,e,g-rasmlarda mos ravishda paxta tolali, ipak, poliester va neylon to'qimalaridagi ipning tolalarini mis oksid purkashdan oldingi tasvirlari ko'rsatilgan. 2b,d,f,h-rasmlarda esa Cu_2O purkalgan paxta tolali, ipak, poliester va neylon to'qimalarining tolalarini SEM tasvirlari ko'rsatilgan. Ularda Cu_2O nanozarralari tolalar yuzasida muntazam va bir xilda joylashgani ko'rinadi.




2-rasm. Turli xil tolalarning Cu_2O bilan qoplashdan oldin va keyingi SEM tasvirlari (15 000): a) paxta tolasi, b) Cu_2O purkalgan paxta tolasi, c) ipak, d) Cu_2O purkalgan ipak, e) poliester, f) Cu_2O purkalgan poliester, g) neylon, h) Cu_2O purkalgan neylon.

To‘qima yuzasida sariq, to‘q sariq, yashil yoki qizil ranglarni sitrat va Cu^{2+} nisbatini o‘zgartirib, mis oksidni sintez qilish orqali mis oksid mikrosferasi bilan strukturaviy rangli matolarni tayyorlash mumkin. O‘lchami turlicha bo‘lgan Cu_2O mikrosferalardan foydalanib, to‘qimalarga purkash usuli bilan strukturaviy ranglarni to‘qima yuzasida hosil qilish natijalari keltirilgan (3-rasmga qarang). 3-rasmga keltirilgan tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, hosil qilingan mis oksid asosida strukturaviy rang yaxlitlik va samarali optik effektga ega



3-rasm. Mis oksid purkalgan to‘qimalarning tasvirlari (x100): a) paxta tolali to‘qima, b) 165 nm mis oksid purkalgan paxta tolali to‘qima, c) 245 nm mis oksid purkalgan paxta tolali to‘qima, d) ipak to‘qima, e) 165 nm mis oksid purkalgan ipak to‘qima, f) 245 nm mis oksid purkalgan ipak to‘qima, g) poliester to‘qima, h) 165 nm mis oksid purkalgan poliester to‘qima, i) 245 nm mis oksid purkalgan poliester to‘qima, j) neylon to‘qimasi, k) 165 nm mis oksid purkalgan neylon to‘qima, l) 245 nm mis oksid purkalgan neylon to‘qima.

Tayyorlangan strukturaviy rangli matolarning aks etishi UV–Vis spektrofotometr jihozida sinovdan o‘tkazildi (4-rasmga qarang). 4-rasmdan ko‘rinadiki, mis oksidni sintez qilish tajribasida sitrat va Cu^{2+} proporsiyasini o‘zgartirish orqali 4 xil o‘lchamdagi mis oksid olish mumkin. Turli kattalikdagi mikrosferalarning o‘z-o‘zidan joylashishi natijasida olingan strukturaviy ranglarning aks etish koeffitsienti yuqori va cho‘qqisi yuqori bo‘lib, bu strukturaviy rang effektining yaxshiligi bildiradi. Ammo, mis oksid mikrosferalari ko‘rinadigan yorug‘likning ko‘k-binafsha diapazonida kuchli yutilishi sababli to‘qimalarda asosan sariq va to‘q sariq ranglarda paydo bo‘ladi. Shuning uchun, bu materialda ko‘k rangni olish qiyin bo‘ladi. Shunga qaramay, ushbu tajribada mis oksid mikrosferasining o‘ziga xos sariq-to‘q sariq rangidan foydalanib, to‘qimalarda to‘q sariq rang hosil qilish mumkin.



4-rasm. Strukturaviy rangli matolarning aks etish egri chiziqlari: (a) 165 nm, (b) 210 nm, (c) 240 nm, (d) 275 nm.

To‘qimani jilodorligini oshirish xossalarini aniqlovchi kiruvchi parametrlarini tadqiq etishda ko‘p omilli matematik modellashirishdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Ta’sir etuvchi omillar sifatida kiruvchi omillar x_1 - mis oksidi konsentratsiyasi %, x_2 - matodagi poliester ulushi % va x_3 - mato yuza zichligi (g/m^2) ko‘rsatgichlari olingan. Tadqiq etilayotgan omillar o‘zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash 1–jadvalda keltirilgan.

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarishi sathlari va oraliqlarini tanlash

Omillar nomi va belgilanishi	O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oralig'i
	-1	0	1	
Mis oksidi konsentratsiyasi, %	1	3	5	2
Matodagi poliester ulushi, %	10	30	50	20
Mato yuza zichligi, g/m ²	100	120	140	20


Regressiya koeffitsientlarini aniqlashda Styudent, matematik modelning adekvatli yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher me'zonlaridan foydalaniladi. Chiquvchi omil sifatida Y_1 – yorqinlik, %, Y_2 – havo o'tkazuvchanlik tanlandi.


$$Y_1 = 70,86 + 3,25x_1 + 1,63x_2 - 4,38x_3 - 2,75x_2x_3 - 2,46x_2^2 - 2,21x_3^2$$



5-rasm. To'qimaning yorqinligi mis oksidi konsentratsiyasi, poliester ulushi, mato yuza zichligi bog'liqligi grafigi.

$$Y_2 = 193,4 - 26,75x_1 - 19,38x_2 - 25,38x_3 + 15,5x_1x_2 + 9x_1x_3 + 1,75x_2x_3 - 3,3x_1^2$$





6-rasm. To‘qimaning havo o‘tkazuvchanligini mis oksidi konsentratsiyasi, poliester ulushi va mato yuza zichligiga bog‘liqlik grafigi

2-jadval

To‘qimani taxtlash hisobini jamlash jadvali.

No	Ko‘rsatkichlar nomi		Shartli belgi	O‘lchov birligi	Ko‘rsatkich
1.	To‘qimani bog‘lanish koeffitsienti		C	-	5.96
2.	O‘rilish koeffitsienti		F	-	2
3.	To‘qimani to‘ldirilish koeffitsienti		$K_{to'q}$	-	0.698
4.	To‘qimani tanda iplari bilan to‘ldirilishi		K_{Tan}	-	0.93
5.	To‘qimani arqoq iplari bilan to‘ldirilishi		K_{Arq}	-	0.75
6.	To‘qimadagi iplarning o‘rtacha chiziqli zichligi		$T_{o'r}$	teks	19
7.	To‘quv dastgohi rusumi				Water Jet Rifa 280
8.	To‘qima kengligi	Tayyor to‘qima	B_t	sm	230
		Xom to‘qima	B_x	sm	249.5
9.	Umumiy tanda iplari soni		n_{umumiy}	dona	5615
10.	Tig‘ nomeri		$N_{tig'}$		106
11.	Shodalar soni		n_{shoda}	dona	4
12.	Tanda kuzatkichlar soni		$n_{T.K.}$	dona	5615
13.	1 m xom to‘qima og‘irligi		$M_{pog.m}$	g	0.256
14.	1m ² xom to‘qima og‘irligi		M_{m^2}	kg	0.103
15.	To‘qima yuzasini tolali materiallar bilan qoplanishi:		$E_{to'q}$	%	66,48
	a) Tanda bo‘yicha		E_t		39,15
	b) Arqoq bo‘yicha		E_a		44,919


To‘la omilli tajriba natijalaridan kelib chiqqan holda tanda ipi uchun chiziqli zichligi 20 teks bo‘lgan paxta tola ip, arqoq ipi uchun 18 teks (DTY 162/288 SIMM) poliester ipidan foydalangan holda polotno o‘rilishida tanda bo‘yicha 225 ip/10sm, arqoq bo‘yicha 279 ip/10sm zichlikda to‘qima “Home teks NT” korxonasida to‘qib olindi. To‘qima to‘la taxtlash parametrlari va ishlab chiqarish parametrlari keltirilgan (2-jadvalga qarang).

Dissertatsiyaning «To‘qima matolar o‘rilishi va tolaviy tarkibiga mis oksidi yordamida rang va jilodorlik berishning ta’siri» deb nomlangan uchinchi bobida


mis oksid mikrosferalarini sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish va to'qimachilik matolarida strukturaviy rang hosil qilish texnologiyasi eksperimental asosda ishlab chiqilgan.

Sentrifuga orqali olingan Cu_2O mikrosferalar konsentratsiyasi juda yuqori bo'lgani sababli, ular osonlik bilan yopishib qoladi, shuning uchun ularni strukturaviy rangli bosma naqshlarni purkash orqali tayyorlashda bevosita qo'llash mumkin emas. Ushbu muammoni hal qilish uchun mikrosferalar konsentratsiyasini sozlash maqsadida ma'lum miqdorda suvsiz etanol qo'shish zarur.

Mikrosferalarning massa ulushining paxta/poliester mato ustidagi strukturaviy rangli naqsh effektiga ta'sirini o'rganish orqali yanada chuqurroq tushuncha hosil qilish maqsad qilingan. Olingan strukturaviy rangli naqshlar yuzasining morfologiyasi va ichki mikrosfera joylashuvi batafsil kuzatildi va natijalar keltirilgan (7 va 8-rasmlarga qarang).



7-rasm. Turli mikrosfera konsentratsiyasiga ega bo'lgan strukturaviy xromogen siyohlardan olingan fotonik kristall tuzilmalarning video mikroskop tasvirlari: (a) 0,5%; (b) 1,0%; (c) 3,0%; (d) 5,0 %



8-rasm. Mis oksidi mikrosferalarining turli konsentratsiyasiga ega strukturaviy xromogen siyohlar yordamida olingan fotonik kristall tuzilmalarning FESEM tasvirlari: (a) 0,5%; (b) 1,0%; (c) 3,0%; (d) 5,0%


Yuqorida olingan foton kristall strukturasiidagi mikrosferalarning joylashuv holati ko'rsatilgan. Rasmga ko'ra, mikrosferalarning konsentratsiyasi ma'lum darajada ularning joylashuv tartibiga ta'sir qiladi. Mikrosfera massa ulushi 0.5 % bo'lganda, bo'yoq ichidagi mikrosferalar konsentratsiyasi past bo'lib, mikrosferalar orasidagi masofa katta va bo'shliqlar ko'p bo'ladi. Bu holat mikrosferalarning faqat qisman tartibli joylashuviga olib keladi, natijada mato yuzasidagi strukturaviy rang to'liq qoplanmaydi va rang effekti past bo'ladi.

Massa ulushi 1.0 % bo'lganda ham mikrosferalar konsentratsiyasi hali ham past bo'lib, ularning joylashuvi tartibsiz bo'ladi, bu esa foton kristall strukturasiining rang effektiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mikrosfera massa ulushi 3.0 % ga yetganda esa, mikrosferalar zich va tartibli joylashadi, bu esa yorqin va jozibali strukturaviy rangni hosil qiladi. Biroq, massa ulushi 5.0 % ga yetganda, mikrosferalar tartibsiz tarqaladi, bu esa matodagi strukturaviy rang effektining pasayishiga olib keladi.


Yuqoridagi tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, Cu_2O mikrosferali strukturaviy rangli bosma pastasida mikrosferalar massa ulushi 3.0 % bo'lganda, to'qimachilik asosida yaxshi yaxlitlikka va aniq strukturaviy rang effektiga ega bo'lgan foton kristall rangli struktura hosil qilish mumkin.

Cu_2O mikrosferalar asosidagi strukturaviy rangli naqshlarni bosishda PDMS bog'lovchi moddaning turli nisbatlari ta'siri o'rganildi. Olingan strukturaviy rangli naqshlarning yuzasidagi morfologiyasi hamda ichki mikrosferalarning joylashuvi kuzatildi, natijalar quyida keltirilgan (9 - 10-rasmlarga qarang).

Bog'lovchi modda ulushi 5.0 % dan 10.0 % gacha bo'lgan holatlarda mato yuzasi to'liq foton kristall strukturaviy rang bilan qoplangan bo'lib, mato to'qimasining tuzilmasi aniq ko'rinadi va yorqin strukturaviy rang hosil bo'ladi. Yopishtiruvchi ulushi 10.0 % dan oshganda, mato yuzasida strukturaviy rang saqlanib qolsa-da, biroz oqargan ko'rinish paydo bo'ladi. Yopishtiruvchi modda ulushi 25.0 % ga yetganda esa, foton kristall strukturaviy rang to'liq oqargan ko'rinishga ega bo'ladi.



9-rasm. Turli bog'lovchi moddalar nisbatlaridan olingan fotonik kristall strukturaviy ranglarning video mikroskop tasvirlari: (a) 5,0%; (b) 10,0%; (c) 15,0%; (d) 20,0%; (e) 25,0%




10-rasm. Turli bog'lovchi moddalar nisbatlaridan olingan fotonik kristall struktura ranglarining FESEM tasvirlari: (a 5,0%; (b) 10,0%; (c) 15,0%; (d) 20,0%; (e) 25,0%

Quyida olingan foton kristall strukturasi mikrosfera joylashuv holati 10-rasmda ko'rsatilgan. Rasmga ko'ra, yopishtiruvchi modda miqdori 5.0 % dan 10.0 % gacha bo'lgan holatlarda mikrosferalar tartibli joylashgan bo'lib, mikrosferalar o'zaro zich bog'langan, bu esa aniq va yorqin strukturaviy rangni ta'minlaydi. Yopishtiruvchi modda miqdori 15.0 % dan 20.0 % gacha bo'lganda,


mikrosferalarning joylashuvi nisbatan tartibsiz bo‘lib qoladi, bu esa foton kristall strukturaviy rangning hosil bo‘lishiga ta’sir qiladi. Yopishtiruvchi modda miqdori 25.0 % ga yetganda esa, ortiqcha yopishtiruvchi modda qo‘shilishi mikrosferalarning tartibli joylashuvini buzadi va strukturaviy rang effekti yomonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, yopishtiruvchi moddaning tizimdagi miqdori bosma jarayonida mikrosferalarning joylashuviga ta’sir qiladi. Cu_2O mikrosferali strukturaviy rangli bosma pastasida yopishtiruvchi modda miqdori 5.0 % dan 10.0 % gacha bo‘lgan holatlarda, asos materialda yaxshi strukturaviy rang effekti bilan foton kristall rangli struktura hosil qilish mumkin.



11-rasm. Mis oksidi fotonik kristalining sun’iy egilish sinov jarayoni va tegishli raqamli fotosuratlar (yuqorida) va FESEM tasvirlari (quyida)

Egilish sinovi orqali biz Cu_2O foton kristalli tuzilmasining strukturaviy rangli naqsh barqarorligi bo‘yicha yorqin va jozibali effekt namoyon etishini aniqladik (11-rasmga qarang). FESEM tasvirlarida mikrosferalar muntazam va tartibli joylashgani ko‘rish mumkin. Bunda egilgandan so‘ng strukturaviy rang o‘zgarishsiz qolgan, egilgan joylarda hech qanday ajralish holati kuzatilmagan va mikrosferalarning tartibli joylashuvi ham buzilmagan. Bog‘lovchi modda PDMS qo‘shilishi bilan Cu_2O foton kristalining rang hosil qiluvchi tuzilmasi va asosiy qatlam o‘rtasidagi barqarorlik sezilarli darajada oshgan. Bu esa egilish jarayonida tuzilmaning asosiy qatlamdan ajralib chiqishini qiyinlashtiradi, shuningdek, rang hosil qiluvchi tuzilmaning a’lo darajadagi chidamliligi va barqarorligini ko‘rsatadi.




12-rasm. Mis oksidi fotonik kristalining ishqalanish sinov jarayoni va tegishli raqamli fotosuratlar (yuqorida) va FESEM tasvirlari (quyida).

Strukturaviy rangli naqshning barqarorligini baholash: ishqalanish sinovi
Strukturaviy rangli naqshning barqarorligini baholash maqsadida ishqalanish sinovi

o‘tkazildi (12-rasmga qarang). Ko‘rinib turibdiki, Cu_2O foton kristalli tuzilmasi ishqalanishdan so‘ng ham sezilarli darajada ajralmagan, ya‘ni strukturaviy rangli naqsh o‘z holatini saqlab qolgan. Bu holat mis oksidga qo‘shilgan PDMS yopishtiruvchi moddaning Cu_2O foton kristali bilan asosiy qatlam o‘rtasidagi bog‘lanishni mustahkamlashi bilan izohlanadi. FESEM tasvirlarida mikrosferalarning zich va tartibli joylashuvi ham bu mustahkamlikni tasdiqlaydi. Shu bilan, PDMS qo‘shilishi Cu_2O foton kristalli rang hosil qiluvchi tuzilmaning asosiy qatlam bilan bog‘lanishini kuchaytirgan, bu esa ishqalanish jarayonida ajralib chiqish ehtimolini kamaytiradi. Natijada, strukturaviy rangli naqsh yuqori darajadagi chidamlilikka ega ekanligi isbotlanadi.

Skanerli elektron mikroskopda (SEM) ko‘rsatilganidek, mis oksid bilan qoplanganidan keyin mato yuzasi morfologiyasini kuzatish uchun ishlatilgan (13-rasmga qarang). Turli sharoitlarda to‘rtta turli o‘lchamdagi mis oksid mikrosferalari sintez qilindi, ularning o‘lchamlari 165 nm, 210 nm, 240 nm va 275 nm. Yuqori o‘ng burchakdagi rasm turli o‘lchamdagi mis oksid mikrosferalarining Petri idishida turli ranglarni namoyon etishiga mos keladi. Mis oksid mikrosferalari silliq yuzaga, ajoyib sharsimonlikka va bir xil o‘lchamga ega.



13- rasm. Har xil zarracha o‘lchamli Cu_2O mikrosferalariga mos keladigan SEM tasvirlari: A)165nm B)210nm C)240nm D)275nm bo‘lgan

Fotonik kristallning o‘zida mavjud bo‘lgan fotonik ta‘qiqqlangan chiziqlar tufayli, ma‘lum bir to‘lqin uzunligidagi yorug‘lik tarqala olmaydi va aks ettiriladi, bu davriy muhitda interferentsiya diffraksiyasiga olib keladi. Agar to‘lqin uzunligi ko‘rinadigan hududda bo‘lsa, inson ko‘zi jonli struktura ranglarini ko‘ra oladi. Fotonik kristallarda rang hosil qiluvchi tuzilmalar printsipi Bragging diffraksiya qonuniga mos keladi. Uni 1- tenglama shaklida ifodalash mumkin:


$$m\lambda = 2d_{y.o.m}(n^2 - \sin^2 \theta)^{\frac{1}{2}} \quad (1)$$

bu yerda: m-Bragg diffraksiya tartibi;

λ -diffraksiya to‘lqin uzunligi, nm;


d-tekisliklararo oraliq, nm;
n-o‘rtacha samarali sinishi indeksi;
 θ -tushayotgan yorug‘likning tushish burchagi, gradus;

Ular orasida strukturaviy rangning maksimal aks ettirilgan to‘lqin uzunligi fotonik kristallning kristall tekisligi oralig‘i, materialning sinishi indeksi va yorug‘likning tushish burchagi bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun, fotonik tarmoqli bo‘shlig‘ini fotonik kristalldagi davriy tuzilmani, materialning sinishi indeksini va fotonik kristallning zarra o‘lchamini o‘zgartirish orqali samarali sozlash mumkin (14-rasmga qarang).




14-rasm Strukturaviy rang sxemasi.

Strukturaviy rangli matoning rangi Cu₂O diametrining 165 nm dan 210 nm, 240 nm va 275 nm gacha oshishi bilan binafsha rangdan ko‘k, yashil, sariq-yashil va to‘q sariq rangga o‘zgardi. Strukturaviy rang sxemasi 15-rasmga keltirilgan (15-rasmga qarang).




15-rasm. Strukturaviy rangli matolarning fotosuratlari: (A) 165 nm, (B) 210nm, (C)240 nm, (D)275 nm

Strukturaviy rangli matoning aks etish egri zichiqlardan ko‘rinib turibdiki, Cu₂O sintezi jarayonida sitrat va Cu²⁺ nisbatini sozlash orqali turli diametrli to‘rtta Cu₂O mikrosferasini olish mumkin (16-rasmga qarang). Cu₂O mikrosferasining turli diametrlari bilan purkalgan matolar turli xil ranglarni ko‘rsatadi. 275 nm li mis oksidi purkalgan matoning eng yaxshi nur aks etish darajasi 80% dan oshdi va to‘lqin uzunligi 650-700 nm oralig‘idaligi aniqlandi.



16-rasm. Mis oksid mikrosferalarining turli zarracha o'lchamlariga ega bo'lgan strukturaviy rangli matolarning aks ettirish egri chiziqlari: A)165 nm B)210 nm C)240 nm D)275 nm

Tayyorlangan matoning tuzilishli rangli rangbardoshligini yanada tasdiqlash uchun ishqalanishga bardoshligi, yorug'likka bardoshligi, yuvishga bardoshligi va egilish sinovlari o'tkazildi.




17-rasm Ishqalanishga bardoshlilik va rang mustahkamligi sinovlari: a) mato, b) ishqalanish paytidagi mato, c) ishqalanishdan keyingi mato, d)Crockmeter TF411

Ishqalanish sinovi xalqaro standarti ISO 105-X12:2001 "To'qimalar rangining chidamliligi eksperimentining ishqalanishga chidamliligi" asosida amalga oshirildi va mato namunasining ishqalanishga bardoshligini aniqlash uchun ishqalanish rangbardoshligini sinovchi laboratoriya jihozi Crockmeter TF411 da amalga oshirildi (17-rasmga qarang). Ishqalanish sinovidan so'ng, mato namunasi yuzasida aniq tiralish yoki chizilishlar yo'q va rang o'zgarishsiz qoldi. Matoning ishqalanish

darajasi 5-darajali sifatida tasdiqlandi, bu matoning ishqalanishga chidamliligi asosan kundalik foydalanish standartiga yetganligini ko'rsatadi.

GB/T 8427-2019 «To'qimalar rangining sun'iy yorug'likka chidamliligi sinovi: Ksenon yoyi» Xitoy standartiga muvofiq, mato namunasining yorug'likka chidamliligi tekshirildi (18-rasmga qarang). Bu tayyorlangan paxta/poliesterli matoning sirtidagi strukturaviy rang mukammal pasayish qarshilik darajasi 6 ball ga teng ekanligini aniqlandi.



18-rasm. Yorug'lik bardoshliligi sinovlaridan keyin taqqoslash: a) mato, b) yorug'lik bardoshliligi sinovlaridan keyingi mato, c) mato, d) yorug'lik bardoshliligi sinovidan keyingi mato.

Yuqori tezlikda aylanadigan yuvish yoki yuqori bosimli suv bilan yuvilganidan qat'iy nazar, yuzasida strukturaviy rangga ega bo'lgan paxta/poliester mato namunalari rangida o'zgarish bo'lmadi, GB/T 3921 ga asosan sirtidagi strukturaviy rangga ega tayyorlangan paxta/poliester mato ham yaxshi yuvilishi mumkin bo'lgan qarshilikka ega ekanligini ko'rsatadi (19-rasmga qarang).



19-rasm. Yuvishga chidamliligi sinovlaridan keyin taqqoslash: (A) mato, (B) yuvish bardoshliligi sinovlaridagi mato, (C) yuvish bardoshliligi sinovlaridan keyingi mato.

Quyida mavjud ishlab chiqarish jarayonida sublimatsiya bosib chiqarish va yuqori haroratda to'qimaga bosish usuli hamda biz taklif qilayotgan mis oksid asosida to'qimaga purkash yoli bilan to'qimaga strukturaviy rang berish jarayonidagi xarajatlarini solishtirish hisobi olingan.

Yillik ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar farqi asosida iqtisodiy samaradorlik quyidagicha ifodalanadi:

$$E_s = Q \cdot X_1 - Q \cdot X_2 \quad (2)$$

bu yerda: E_s — iqtisodiy samaradorlik

Q — yillik ishlab chiqarish hajmi,

X_1 — sublimatsiya texnologiyasi bo'yicha tannarx

X_2 — strukturaviy rang berish texnologiyasi bo'yicha tannarx

$$E_s = Q \cdot X_1 - Q \cdot X_2 = 87\,360 \cdot 32\,520 - 87\,360 \cdot 28\,710 = 332\,409\,600 \text{ so'm}$$

Taqqoslash natijalariga ko'ra, strukturaviy rang berish texnologiyasi sublimatsiya bosmaga nisbatan tannarxni kamaytiradi. Bir kvadrat metr mahsulot tannarxi 28 710 so'mni tashkil etib, sublimatsiya bosmadagi 32 520 so'mga qaraganda 3 810 so'm arzon. Yillik ishlab chiqarish hajmi 87 360 m² bo'yicha umumiy tejamkorlik 332 409 600 so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich tannarxning 11.72 % qismini tejash imkonini beradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Paxta va aralash tolali matolarda jilodorlikni oshirish, ekologik xavfsiz va iste'molchilar talabiga mos mahsulot ishlab chiqarish parametrlari asoslandi.

2. Ikki bosqichli qaytarish usuli yordamida 190–275 nm oralig'ida monodispers Cu₂O mikrosferalari sintez qilindi va XRD, FTIR, SEM va EDS tahlillari bilan tasdiqlandi.

3. Paxta, ipak, poliester, neylon matolar yuzasiga PVA bog'lovchi vositasi yordamida Cu₂O mikrosferalari sepilib, strukturaviy rangli matolar yaratildi hamda mexanik sinovlar natijasida 100 % paxta tolali iplardan to'qilgan matoda mexanik xossasi pasayishi aniqlandi. Ipak, poliester va neylon aralashmali matolarda qo'shimcha mustahkamlik kuzatildi.

4. To'la omilli tajriba natijalari yorqinlik (Y_1) va havo o'tkazuvchanlik (Y_2) o'rtasida muvozanat zarurligini ko'rsatdi. Yorqinlik va havo o'tkazuvchanlik uchun optimal parametrlar sifatida $x_1=3\%$, $x_2=50\%$, $x_3=100 \text{ g/m}^2$ qabul qilindi.

5. Mis oksid konsentratsiyasi va yopishtiruvchi modda nisbatining optimallashtirilishi o'rganildi. Optimal natija mikrosfera massa ulushi 3.0 % va PDMS bog'lovchi modda ulushi 5–10 % ligi aniqlandi.

6. Mikrosferalarning o'lchami (165–275 nm) rang spektrini boshqaruvchi asosiy omil bo'lib, diametr ortishi bilan rang binafsha rangdan ko'k, yashil va to'q sariq ranglarga siljishi kuzatildi.

7. Mexanik sinovlar (egilish, ishqalanish, yuvish) Cu₂O fotonik kristalli naqshlarning yuqori barqarorligini ko'rsatdi.

8. SEM, EDS va XRD tahlillari Cu₂O mikrosferalarini tolalar yuzasida bir tekis taqsimlanganini va zarracha o'lchami 165–275 nm oralig'ida monodispers shaklda tayyorlanganini tasdiqladi.

9. Iqtisodiy hisob-kitoblarga ko'ra, Cu₂O asosida strukturaviy rang berish texnologiyasi sublimatsiya bosmaga nisbatan tannarxni kamaytiradi. 1 m² mahsulot tannarxi 28 710 so'm bo'lib, sublimatsiya bosmadagi 32 520 so'mga qaraganda 3 810 so'm arzon. Yillik ishlab chiqarish hajmi 87 360 m² bo'yicha umumiy tejamkorlik 332 409 600 so'mni tashkil etadi, bu esa tannarxning 11.72 % qismini tejash imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSC.03/2025.27.12.T.15.03 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ИЗАТИЛЛАЕВ МУЗАФФАРХОН МУССОХОН УГЛИ

**ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ
ПОВЫШЕНИЯ БЛЕСКА ТЕКСТИЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ**

**05.06.02-Технология текстильных материалов
и первичная обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган-2026

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2020.4.PhD/T1979.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (namdtu_info@edu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Эркинов Зокиржон Эркинбой угли
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Валиев Гулам Набиджанович
доктор технических наук, профессор

Мухтаров Журабек Райимбергенович
доктор философии по техническим наукам, доцент


Ведущая организация:

**Узбекский научно-исследовательский институт
натуральных волокон**

Защита диссертации состоится “2” мая 2026 года в 15:30 часов на заседании при Научном совете DSc.03/2025.27.12.T.15.03 при Наманганском государственном техническом университете (Адрес: Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-19-96. e-mail: namdtu_info@edu.uz, Наманганский государственный технический университет, здание 12, 1- этаж, зал совещаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрирован под номером №159). (Адрес: г.Наманган, улица И.Каримова, дом 12, тел. (998) 69-234-14-85). e-mail: namdtu_info@edu.uz

Автореферат диссертации разослан “16” апреля 2026 года.
(реестр протокола рассылки №88 от “13” января 2026 года).



К.М. Холиков

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Х.Т. Бобожанов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

Ж.К. Юлдашев

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на основе расширения объема глобального текстильного рынка, повышения темпов производства и определения функциональной и эстетической эффективности тканей особое значение придается вопросам экономного производства и рационального использования текстильной продукции. В настоящее время мировой текстильный рынок составил 1,16 миллиарда долларов США к концу 2025 года и, как ожидается, достигнет 1,61 миллиарда долларов США к 2033 году, с годовым темпом роста около 4,2%, при этом урбанизация, спрос на технические ткани и технологии цифровой печати являются ключевыми факторами¹. В то же время в текстильной промышленности во всем мире работают более 7 миллионов человек, что делает ее одной из крупнейших отраслей-работодателей². В связи с этим, в том числе увеличение объема рынка технических и функциональных текстилей до более чем 52 миллиардов долларов к 2030 году свидетельствует о растущем спросе на ткани в здравоохранении, спорте, военной и промышленной сферах, а также особое внимание уделяется внедрению инновационных, экономических и экологически безопасных производственных технологий в этом направлении.

Во всем мире проводятся научные исследования, направленные на значительное улучшение качества текстильного обеспечения, в частности, обеспечение эстетического вида, функциональных свойств и экологической безопасности текстильных изделий. В этом направлении, в частности, приоритетными считаются исследования по разработке инновационных и экономических методов повышения блеска (привлекательности) поверхности ткани, моделированию процессов взаимодействия излучения и света на поверхности ткани и оптимизации основных параметров. В то же время, устранение экологических проблем, возникающих в процессе многоступенчатой обработки традиционными методами и повышения блеска ткани с помощью химических веществ, снижение производственных затрат и облегчение технологических сложностей, обеспечение блеска на поверхности ткани экологически безопасными и инновационными подходами является одной из актуальных задач.

В нашей республике проводятся масштабные мероприятия по модернизации текстильной промышленности за счет внедрения современных технологий, расширения объемов производства, повышения качества продукции, производства экологически чистых инновационных тканей и расширения экспортного потенциала готовой продукции. В Стратегии “Узбекистан – 2030” в частности, определены задачи по доведению объема валового внутреннего продукта до 160 миллиардов долларов, доходов на душу населения - до 4 тысяч долларов, увеличению доли промышленно-

¹ Textile Market Size, Share & Growth Analysis Report, 2030 <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

² Global Textile Industry Statistics | ZipDo Education Reports 2025 <https://zipdo.co/global-textile-industry-statistics/>

технологической продукции с 25 до 32 процентов, производству крупными предприятиями импортозамещающей продукции и расширению кооперационных связей с региональными предприятиями, внедрению системы активного стимулирования предприятий, наладивших промышленную кооперацию. При выполнении этих задач, в частности, важными являются научные исследования, направленные на повышение блеска поверхности ткани, разработку экологически безопасных методов окрашивания и улучшение функциональных свойств.

